

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**MOYDINOVA SHOHIDA ISMAILJANOVNA**

**INGLIZ TILIDA O‘QISH KOMPETENSIYASINI KASBGA  
YO‘NALTIRGANLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH  
TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in  
pedagogical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Moydinova Shohida Ismailjanovna**

Ingliz tilida o'qish kompetensiyasini kasbga yo'naltirganlik asosida shakllantirish  
texnologiyalari ..... 3

**Moydinova Shokhida Ismailjanovna**

Technologies of formation professionally oriented reading competence in  
English ..... 25

**Мойдинова Шохиди Исмаилжановна**

Технологии формирования компетенции чтения на английском языке на  
основе профессиональной ориентации ..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 52

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**MOYDINOVA SHOHIDA ISMAILJANOVNA**

**INGLIZ TILIDA O‘QISH KOMPETENSIYASINI KASBGA  
YO‘NALTIRGANLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH  
TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD.Ped2736 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari institutining veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Alimov Sharobiddin Soliyevich**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Artiqova Muhayyoxon Botiraliyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Muxamedjanova Sitorabegim Djamolitdinovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (+99874) 223-42-76; faks: (+99874) 223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar. Bobur shoh ko‘chasi, 5-uy. Tel: (+99874) 223-42-76

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.X.Shaxobiddinova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.f.d., professor

**A.Y.Teshaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**M.A.Abduvaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida kechayotgan integratsiyalashuv va globallashtirish jarayonlaridagi axborotlashgan jamiyatda xorijiy tildagi manbalardan axborot olish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi davrda insoniyat ixtiyoridagi mavjud axborot ummonidan, ya'ni turli adabiyotlardan, ayniqsa internet tarmog'idan tegishli ma'lumotni olishdagi eng muhim vosita yozma manbalarni o'qib o'rganish va axborot olishdir. Talabalarga chet tilini kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo'llay olish darajasida o'rgatish uchun an'anaviy yondashuvni takomillashtirish, uning maqsad va mazmunini qayta ko'rib, zamon talabiga javob beradigan o'qitish metodlarini shakllantirish lozim. Shuning uchun nofilologik oliy ta'lim muassasasi talabalariga chet tilini kasb-hunarga yo'naltirilgan holda o'qitish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoda nofilologik yo'nalish talabalarining chet tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ingliz tilidagi o'qish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashni modernizatsiyalash, o'qish ko'nikmasini bosqichma-bosqich shakllantirish, lingvodidaktik va psixologik omillar ta'sirini aniqlash alohida ahamiyatga molikdir. Angliyaning Oksford, AQShning San Xose davlat universitetidagi MATESOL dasturida, Meksikaning Guadajara universitetidagi REST loyihalarida ingliz tilidagi o'qish ko'nikmalarini kasbga yo'naltirilganlik asosida rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi ushbu masalaning bugungi kunda zamonaviy mutaxassis tayyorlashdagi muhim masalalardan ekanligini izohlamoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, chet tillar o'qitishni rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan Prezidentimiz tomonidan bir qator qarorlar hamda farmonlar bu boradagi ishlarni bajarishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim" – deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev<sup>1</sup>. Mamlakatimizda har yili ilmfanning bir nechta yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. 2021-yilda fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. Shu bilan birga, 2022-yildan boshlab, magistratura va doktoranturaga kiruvchilar uchun chet til bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritildi. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitish bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Tabiiy va texnik fanlar bo'yicha xorijiy darslik va qo'llanmalardan erkin foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilida o'qishga o'rgatishni nazariy asoslash, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-maydagi "Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan videoselektor yig'ilishi

zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda fizika ta'lim yo'nalishi talabalarida ham kasbga yo'naltirilgan ingliz tilidagi o'qish ko'nikmalarini shakllantirishni texnologik asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Prezident Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-34-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-312-son Qarori, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2024-yil 2-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-son Prezident Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekistonda chet tillarni o'qitish masalalari va muammolari J.J.Jalolov, O'.H.Hoshimov, G.H.Bakiyeva, L.T.Ahmedova, T.K.Sattarov, F.M.Rashidova, G.T.Mahkamova, Sh.S.Alimov, Sh.Y.Begaliyev, I.M.To'xtasinov, B.O.Toshboyeva, D.U.Hoshimova va boshqalarning ishlarida ko'rilgan<sup>2</sup>.

Ingliz tilida nutqiy malakalarni kasbga yo'naltirganlik asosida shakllantirish muammolarini bir qator O'zbekistonlik olimlardan V.I.Normuratova, S.A.Misirov,

---

<sup>2</sup> Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent, Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Xo'shimov Y., E'qubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, Sharq, 2003. – 300 b.; Bakiyeva G., Mahkamova G., Kuldoshev A. English 3. – Tashkent, 2007. – 215 p.; Ahmedova L.T. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Ташкент, 2009. – 160 с.; Саттаров Т. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка) док. дисс. автореф. 2000. – 32 с.; Рашидова Ф.М. Концептуально-методические основы внедрения CEFR в систему непрерывного образования в Узбекистане (на примере англ. языка). Дисс. д-ра пед. наук (DSc). – Ташкент, 2017. – 258 с.; Махкамova Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов английского языка. – Ташкент, 2010. – 207 с.; Бегалиев Ш.Ю. Методика обучения пониманию пассивных конструкций английского языка при чтении литературы по специальности. Дисс. канд. пед. наук. – Киев, 1983.–179 с; Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков. Дисс. д-ра пед. наук.(DSc). – Ташкент, 2018. – 203 с.; Тошбоева Б.О. Бошлангич синфларда чет (инглиз) тили o'qitish технологияларини такомиллаштириш. Пед.фан.б-ча.фалс.д-ри дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 52 б.; Alimov Sh.S. Comparative methodology in tables. – Tashkent, Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2003. – 155 p.; Hashimova D.U. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межкультурной взаимодействия. Дисс. д-ра. фил.наук.–Ташкент, 2007, – 255 с.;

F.Sh.Alimov, X.A.Mamatqulov, M.A.Nazarova, D.A.Saimnazarova, M.A.Ahmedova, N.X.Kushiyeva, D.M.Isroilova<sup>3</sup>; mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan I.A.Zimnyaya, Y.I.Passov, S.A.Vishnyakova, N.V.Barishnikov, S.K.Folomkina, Z.I.Klichnikova, I.L.Bim, N.D.Galskova, R.P.Milrud<sup>4</sup>, jumladan, kasbga yo‘naltirilgan o‘qishga o‘rgatish masalalari T.S.Serova, M.V.Lyaxovitskiy, I.M.Berman, G.V.Sorokovix, S.G.Ulitina, M.A. Mosina, T.A. Razuvayeva, M.S. Grishina<sup>5</sup>; xorijiy davlatlar olimlaridan M.West, G.Westhoff, F.Smith, S.Silberstein, C.Wallace, W.Grabe va Frederika L.Stoller, J.Williamson larning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan<sup>6</sup>.

Ammo, hozirgacha mamlakatimizda nofilologik oliy ta‘lim muassasalari fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi o‘qish kompetensiyasini kasbga

<sup>3</sup> Нормуратова В.И. Формирование рецептивных лексических навыков к студентов-юристов. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2008, – 46 с.; Misirov S.A. Kasb–hunar kollejarida ingliz tili o‘qitishning lingvodidaktik asoslari. Ped.fan.nom.diss. – Toshkent, 2007. – 152 b.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida). Ped.fan.b-cha.fals.d-ri diss. – Toshkent, 2018. – 158 b.; Mamatqulov X.A. Xorijiy tillar bo‘yicha harbiy pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Ped.fan.d-ri.diss. avtoref. (DSc). – Toshkent, 2021. – 54 b.; Назарова М.А. Совершенствование обучения студентов лексической полисемии при чтении текстов на английском языке. Канд. дисс.пед.наук. – Ташкент, 2018. – 168 с.; Saimnazarova D.A. Talabalarga ingliz tilida matn o‘qishni o‘rgatish innovatsion texnologiyalari. Ped.fan. b-cha.fals.d-ri diss. avtoref. –Chirchiq, 2021. – 46 b.; Ahmedova M.A. Medik talabalarining chet tilda kasbiy kommunikativ kompetensiyasini axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish. Ped.fan. b-cha.fals.d-ri diss. avtoref. – Farg‘ona, 2021. – 52 b.; Kushiyeva N.X. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari. Ped.fan. b-cha.fals.d-ri diss. avtoref. –Ташкент, 2020. – 48 b.; Isroilova D.M. Nofilologik oliy o‘quv yurtlarida talabalarni fanlararo bog‘liqlikda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tiliga o‘qitish. Ped.fan.b-cha.fals.d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 56 b.

<sup>4</sup> Зимняя И.А. Педагогическая психология. Учебник для вузов. – Москва, 2001. – 327 с.; Пассов, Е. И. Методика как теория и технология иноязычного образования. Елецкий гос. университет им. И. А. Бунина, 2010. – 543 с.; Вишнякова, С. А. Теоретические основы обучения моделированию научного текста / С. А. Вишнякова. – СПб.: Европейский дом, 2001. – 258 с.; Барышников Н.В. Когнитивно-коммуникативный подход к обучению чтению // Когнитивная методика обучения иностранным языкам в различных условиях: Тез. Всеросс. науч.-метод. конф. – Пятигорск: изд-во ПГЛУ, 1999. – С. 5-6; Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе: учебно-методическое пособие / С. К. Фоломкина; науч. ред. Н. И. Гез. – Изд. 2-е, испр. – Москва: Высшая школа, 2005. – 253 с.; Клычникова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке: Пособие для учителя. – Москва.: Просвещение, 1983, – 207 с.; Бим И.Л. Подход к проблеме упражнений с позиций иерархии целей и задач // Общая методика обучения иностранным языкам: Хрестоматия. – Москва.: Рус. яз., 1991. – С. 92-99; Гальскова, Н. Д. Современная методика обучения иностранному языку. – Москва.: АРКТИ, 2000. – 165 с.; Мильруд, Р. П., Гончаров, А. А. Теоретические и практические проблемы обучения пониманию коммуникативного смысла иноязычного текста // ИЯШ, 2003. – № 1. – С. 12-18.

<sup>5</sup> Серова Т.С. // Информация, информированность, инновации в образовании и науке. Избранное о теории профессионально-ориентированного чтения и методике обучения ему в высшей школе: [сб. науч. ст.]. – Пермь: Изд-во ПНИПУ, 2015. – 441 с.; Ляховицкий М.В. О некоторых базисных категориях методики обучения иностранным языкам // ИЯШ. 1973. –№1.; Бerman, И. М. Методика обучения английскому языку в неязыковых вузах. – Москва, 1970. – 229 с.; Сороковых Г.В. Субъектно-деятельностный подход в лингвистической подготовке студентов неязыковых вузов. Дисс. канд. пед. наук. – Курск, 2004.; Улитина, С.Г.Формирование структурно-композиционных навыков иноязычного профессионально-ориентированного чтения у переводчиков в условиях деловой коммуникации. Дисс. канд. пед. наук. – Екатеринбург, 1999; Мосина, М. А. Обучение профессионально-ориентированному информативному чтению-диалогу англоязычных научно-методических текстов. Дисс. канд. пед. наук. – Пермь, 2001. – 229 с.; Разуваева Т.А. Формирование читательской компетенции студентов факультета иностранных языков. Дисс. канд. пед. наук. – Тула, 2006. – 234 с.; Гришина М.С. Обучение гибкому профессионально ориентированному иноязычному чтению в сети Интернет: на основе комплекса компьютерных программ. Дисс. канд. пед. наук. – Перм, 2003.

<sup>6</sup> West M. Teaching English in Difficult Circumstances: Teaching English as a Foreign Language with notes on the Technique of Textbook Construction. – London: Longmans. 1960; Westhoff G. Fertigkeit Lesen. Goethe-Institut, Muenchen, 1997. – 176 p.; Smith F. Understanding reading: A psycholinguistic analysis of reading and learning to read. 5 ed. Aillsdale (N.J.); Hove: Lawrence Erlbaum associates, 1994. XIII, – 336 p.; Silberstein S. Techniques and Resources in Teaching Reading. OUP, 1994. – 126 p.; Grabe W. and Fredericka L.Stoller. Teaching and Researching Reading. 2013. – 324 p.; Wallace C. Reading. Oxford: Oxford University Press, 1992; Williamson J. Improving reading comprehension: Some current strategies// English Teaching Forum. 1988. – P. 7-8.

yo'naltirganlik asosida shakllantirish mavzusi mustaqil metodik tadqiqot sifatida qaralgani yo'q.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsion tadqiqot Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida ko'zda tutilgan "Chet tillarni o'qitishni kasbga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan tashkil qilish samaradorligini oshirish" ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** nofilologik oliy ta'lim muassasalari fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasini kasbga yo'naltirilganlik asosida shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganib tahlil qilish orqali o'qish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining o'qish kompetensiyasini shakllantirishda mashqlarning ustuvor ahamiyatga egaligidan kelib chiqib, fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilini bilish darajasiga ko'ra kasbga oid matnlarni o'qib tushunishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar kompleksini ishlab chiqish;

ingliz tilida o'qish mazmunini kasbga yo'naltirganlik nuqtayi nazaridan unga qo'yilayotgan ehtiyoj va talabdan kelib chiqib tanlash hamda kasbiy matnlarni o'qib tushunish kompetensiyasini shakllantirishda ingliz tilidagi o'qish mazmunini fizika ta'lim yo'nalishiga oid kasbiy matnlarni tanlash orqali takomillashtirish;

amaliy mashg'ulotlarda fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy matnlarni o'qish kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan sohaviy terminologiyani o'z ichiga olgan o'quv materiallari va amaliy topshiriqlardan iborat o'quv-uslubiy ta'minot yaratish;

fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasi darajasini o'rganish va o'qishning nutq faoliyati sifatidagi lingvistik, psixologik, psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilish hamda kasbga yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasini shakllantirishni (Stage-by-stage) metodik yondashuv asosida tashkil qilishni asoslash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida fizika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini kasbga yo'naltirganlik asosida shakllantirish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** fizika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini shakllantirish mazmuni, turlari, vositalari, lingvodidaktik va psixologik omillari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarning yechimini topishga qaratilgan pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so'rovnomalar, matematik-statistik tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nutqiy ko'nikma-malakalarni shakllantirishda fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilini bilish darajasiga ko'ra kasbga oid matnlarni o'qib tushunishga yo'naltirilgan maxsus mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan;

kasbiy matnlarni o'qib tushunish kompetensiyasini (reading competence) shakllantirishda ingliz tilidagi o'qish mazmuni fizika ta'lim yo'nalishiga oid kasbiy matnlarni tanlash orqali takomillashtirilgan;

amaliy mashg'ulotlarda fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy matnlarni o'qish kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan sohaviy terminologiyani o'z ichiga olgan o'quv materiallari va amaliy topshiriqlardan iborat o'quv-uslubiy ta'minot yaratilgan;

fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini shakllantirishni 6 bosqichdan iborat (Stage-by-stage) metodik yondashuv asosida tashkil qilish asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi o'qish ko'nikmasini kasbga yo'naltirganlik asosida shakllantirishga qaratilgan "Texts on speciality" o'quv qo'llanmasi yaratildi va amaliyotga tatbiq etilgan;

fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi o'qishga o'rgatishning uslubiy ta'minoti kasbiy matnlar asosida takomillashtirilgan;

talabalarning ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, ishda qo'llanilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarni ishonchli manbalardan olinganligi, o'qish kompetensiyasini shakllantirishning lingvistik, psixologik va didaktik omillar asosida yoritilganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nofilologik oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan o'qishga o'rgatish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda metodik ta'minot vazifasini bajaradi; tadqiqot materiallari nofilologik yo'nalishdagi boshqa ta'lim muassasalarida ham kasbiy kompetensiyani shakllantirish mazmunini aniqlash, xalqaro miqyosda kasbiy muloqotni amalga oshira oladigan malakali mutaxassis tayyorlashning lingvotexnologiyasiga taalluqli ilmiy va amaliy xulosalari bilan ham belgilanadi; nofilologik fakultetlarda ingliz tili o'qitishga oid darsliklar, lug'atlar tuzishda ham foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, mavzuga doir tahlillar natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalardan "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi", "Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili", "Ingliz tili o'qitish qiyosiy metodikasi" kabi fanlarni, maxsus kurslarni o'qitishda va shu soha bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nofilologik oliy ta'lim muassasalarining fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy matnlarni o'qib tushunishga oid kompetensiyasini shakllantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

didaktik maqsadlari o'zaro aloqador bo'lmagan alohida mashqlardan foydalanish ta'lim jarayonida ko'zlangan o'quv maqsadlariga erishishga olib

kelmaydi. Ingliz tilidagi matnlarni o‘qib tushunish jarayonini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish uchun fizika ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarining chet til bilish darajasiga ko‘ra kasbga oid matnlarni o‘qib tushunishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar kompleksini yaratishda Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-mayda berilgan 1140/02–son ma‘lumotnomasi). Natijada, fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining chet til bilish darajasiga ko‘ra ingliz tilidagi kasbiy matnlarni o‘qib tushunishni takomillashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar kompleksi yaratilgan;

nofilologik oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan chet til fanining mazmuni talabalarining kasbiy ehtiyojlariga mos bo‘lishi ularning bo‘lgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlik darajasini belgilaydi. Kasbiy matnlar bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga egaligi xususidagi fikrlardan 2021-2023-yillarda Qarshi davlat universitetida amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 18-maydagi 03/1427-son ma‘lumotnomasi). Natijada, nofilologik oliy ta‘lim muassasalari fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirishda ingliz tilidagi o‘qish mazmuni fizika ta‘lim yo‘nalishiga oid kasbiy matnlarni tanlash orqali takomillashtirish zaruriyati haqidagi fikrlar asoslangan;

nofilologik oliy ta‘lim muassasalari talabalariga chet tilida kasbga yo‘naltirilgan muloqotni o‘rgatish, birinchidan, chet til o‘qituvchisi oldiga bo‘lajak mutaxassisni fanlararo aloqalar asosida, chet tilni kasbiy mahoratni oshirish vositasi sifatida foydalanishni va ularning kasbiy bilimlari, shuningdek, xalqaro tajriba orttirish, kasbiy mahorat va malakalarni rivojlantirish vositasi sifatida o‘rgatish vazifasini qo‘yadi. Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy matnlarni o‘qish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan sohaviy terminologiyani o‘z ichiga olgan o‘quv materiallari va amaliy topshiriqlardan iborat o‘quv-uslubiy ta‘minot yaratishda Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 20-maydagi 1038/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyalar kelajakda lug‘at, o‘quv qo‘llanma, darsliklar yaratilishida va shu sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun ma‘lumotlar bazasi bo‘lib hizmat qilishligi asoslangan;

fizika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirishni 6 bosqichdan iborat (Stage-by-stage) metodik yondashuv asosida tashkil qilishga oid xulosalardan 2022-2024-yillar davomida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasasining “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta‘lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasasining 2024-yil 25-apreldagi 04-36-557-son

ma'lumotnomasi). Natijada, fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini 6 bosqichdan iborat (Stage-by-stage) yondashuv asosida shakllantirish texnologiyasi takomillashtirilgan; "Texts on speciality" nomli o'quv qo'llanmasida taklif etilgan mutaxassislikka oid matnlar, mashqlar va topshiriqlar fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllanishiga xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i). Natijada, zamonaviy ilmiy-metodik talablarga muvofiq shakllantirilgan adabiyotlar bazasi yana bir ilmiy asoslangan va pedagogik jihatdan takomillashtirilgan o'quv qo'llanma bilan boyitilgan hamda fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy sohalarida global jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiya bo'lish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, OAK tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy ish (4 ta maqola, 1 tasi xorijiy jurnalda) nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 129 betni, umumiy hajmi esa 159 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Talabalarining ingliz tilidagi o'qib tushunish ko'nikmalarini kasbga yo'naltirilganlik asosida tashkil qilishning asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida xorijiy til o'qitishni kasbga yo'naltirganlik holda tashkil qilishga qo'yilayotgan talablar va kasbga yo'naltirganlik xususidagi zamonaviy konsepsiyalar, o'qishning lingvo-psixologik xususiyatlari va o'qishning kasbiy mahoratni shakllantirishdagi roli va o'qish turlarining tasnifi tahlilga tortilgan.

Konsepsiyaga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Xalqaro mehnat tashkiloti"ning Nizomlari, Konsepsiyalari va takliflari, bir qator boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ushbu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olindi.

Kasb-hunarga yo'naltirish umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodni kasbiy tiklanishi, tug'ma qobiliyatlarini rivojlantirishiga, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beradi. Umumlashtirib aytganda, kasb-hunar konsepsiyasi jamiyatning barcha sohalarini o'z ichiga oladi va barcha kasblarga oid kompetensiyalarni shakllantirishni taqozo qiladi. Hozirda jamiyat taraqqiyoti inson faoliyatining har bir turida kompetentivlikni shakllantirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda chet tillarni kasbga yo'naltirganlik asosida o'rgatish "Professionally-oriented foreign language teaching", "English for specific purposes (ESP)", "English for Science and Technology (EST)", "English for Business and Economics (EBE)", "English for Social Studies (ESS)", "English for Academic Purposes (EAP)", "English for Occupational Purposes (EOP)" konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet til o'rganish jarayoni, birinchi navbatda kasbga oid matnlar bilan ishlashdan iborat. Mutaxassislikka oid chet tildagi matn kasbiy kompetensiya ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi vosita hisoblanadi. Bunday matnlar bilan ishlash keng qamrovli, tushunarli bo'lishi kerak, aks holda bu matnni tarjimasinigina tushunishga va ko'p hollarda ma'lumotni mexanik yodlab qayta aytib berishga olib boradi. Mutaxassislikka oid ingliz tilidagi matn bilan har tomonlama keng qamrovli ishlash bo'lajak mutaxassisning kasbga oid so'z boyligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Ta'limni modernizatsiya qilish ushbu sohadagi ustuvor masalalardan biri bo'lib, ta'limda insonparvarlik tamoyili talablaridan kelib chiqib ta'lim tarbiyani amalga oshirishdir. Bu esa ta'lim oluvchilarning ehtiyoji, istak xoxishi, qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ularga nisbatan differensial yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuvda har bir kasbning o'ziga xos tomonlarini yoritib beruvchi o'quv materiallarini tanlab olishni taqozo etgan holda o'quv jarayonini tashkil etishga nisbatan differensial yondashuv ham nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish mazmunining asosini tashkil qiluvchi o'quv materiallarini tanlash, shaxsga yo'naltirgan ta'lim tamoyillaridan kelib chiqib, samarali o'qitish metod va usullari hamda shakllarini tanlashni ham taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida talabalarda o'qib o'rganishga nisbatan qiziqish uyg'otish, faollashtirish va tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyatni xis ettirgan xolda shu kasbga xos kasbiy mahoratni shakllantirish zarurligini nazarda tutadi.

Har bir sohaning mutaxassisi chet til yordamida o'zining xorijlik hamkasblari bilan kasbiy mavzularda nutqiy muloqotga kirisha olishi va o'z fikrini chet tilda ifodalay olishi talab etiladi. Buning uchun esa ularda chet tildagi kasbiy mavzular va leksika asosidagi og'zaki va yozma nutq ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish taqozo etiladi.

Hozirgi kundagi davr talabi har-bir kasb egasi o'z sohasiga oid chet tildagi adabiyotlarning asl nusxasini o'qiy olishi, o'qilgan matnni tushunishi va uni o'z kasbiy faoliyatida qo'llay olishi zarurligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan bir qatorda, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak. Chet tillarini o'rganish va uni amalda qo'llash bugungi globallashtirilgan davr talabidir.

Bundan tashqari, chet tilini kasbga yo'naltirib o'qitishning o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq:

ma'lum bir ixtisoslik yuzasidan o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv materialini rejalashtirish;

o'qishga o'rgatishning maxsus metodlaridan, o'qitish maqsadlaridan va nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqib foydalanish;

talabalarning qiziqqan va tanlagan kasbiga ko'ra tanlab olingan o'quv materialini o'qib tushunishga o'rgatishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillaridan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkillashtirish.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet tilni kasbga yo'naltirib o'qitish ma'lum bir maqsadga eltuvchi faoliyatlar jamlanmasi hisoblanib, u kommunikativ maqsadlarga asoslanadi.

Kasbga yo'naltirilganlik xususidagi zamonaviy konsepsiyalar tahlili chet tildagi kasbga yo'naltirilgan matnlarni o'qib tushunish, kasbiy faoliyatda qo'llash,

turli kasb egalarining kasbiy mahoratlarini oshirishga qaratilgan o'qish (reading) strategiyalarini va taktikalarini aniqlab olishga yordam beradi.

Shuningdek, kasbga yo'naltirib o'qitishni tashkil qilishda quyidagi omillarga ham alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq:

talabalarining bo'lg'usi kasbga oid ingliz tilidagi matnlarni tanlash va ular ustida ishlash malakalarini shakllantirish;

tanlab olingan kasbiy matnlarni talabalar o'qib tushunishlarida qoniqish hosil qilish uchun ularni osondan murakkabga didaktik tamoyili asosida tizimlashtirish;

og'zaki kasbiy muloqot malakalarini shakllantirishga oid lug'at minimumini tuzish va undan amaliyotda foydalanish.

Nofilologik fakultet talabalarini ingliz tilidagi matnlarni o'qishga o'rgatishda kasbiy leksikaning ma'nosini tushunib olishga, kasbiy matnga xos grammatik strukturalarni ajratib olishga o'rgatish kasbiy leksikadan va matndan olingan axborotni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalar kasbiy matnlarni o'qishda uning mazmunini anglab olishga halaqit beruvchi lingvistik xususiyatiga aloqador qiyinchiliklarni uchratishlari mumkin. Bunday qiyinchiliklarga sohaviy leksika, grammatik konstruksiyalar, so'z tartibi bilan bog'liq lingvistik qiyinchiliklarni kiritish mumkin. Shu sababli ham chet til o'qituvchisi bunday lingvistik qiyinchiliklarni oldindan aniqlab, zarur usullar va vositalarni, mashqlar tizimini tanlab darsni rejalashtirsagina dars samaradorli ortadi.

Maxsus sohaga oid kasbiy matnlarni o'qib tushunishga o'rgatishdagi qiyinchiliklardan eng ko'p uchraydigani leksik qiyinchiliklar bo'lib, ular talabalarining so'z boyligining kamligi, kasbiy terminlar (atamalar)ni bilmaslikdan kelib chiqadi. Kasbiy terminlarni tushunib olishdagi eng muhim narsa ushbu terminlarning shu sohada ishlatilganda deyarli bir ma'noga egaligidir va buni chet til o'qituvchisi hisobga olmog'i lozim. Shuni ta'kidlash joizki, leksik atamalarni o'rganishda, avvalo baynalminal so'zlardan tashkil topgan leksik birliklarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq, chunki ularni o'zbek tilida muqobili yo'qligi uchun chet tili va ona tilidagi terminlarni qiyoslab o'rganishiga ehtiyoj yo'q.

Nofilologik fakultetlarda chet til o'qitishda kasbga yo'naltirilgan o'qishning muhim xususiyati shundaki, unga mutaxassis faoliyatining dinamik ierarxik tuzilishining bir qismi deb qarash to'g'ri bo'ladi, lekin u kasbiy faoliyatni shakllantirishda yetakchi bo'la olmaydi. U faqat yordamchi vazifani bajarish mumkin. Chet tildagi kasbga yo'naltirilgan o'qish ta'limning muvaffaqiyati va kasbiy kompetentsiyani shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin.

Biz tahlil qiladigan o'qish turining asosiy xususiyati kasbga yo'naltirilgan o'qish bo'lib u talabaning o'ziga xos ehtiyoj, qiziqish va manfaatlariga asoslangan. Masalan, S.A.Lomaxina<sup>7</sup>, kasbga yo'naltirilgan o'qish motivlarining axborot ehtiyojlariga e'tibor berib, individga unga taqdim etilgan barcha ilmiy ma'lumotlar kerak emas, u ma'lum maqsadlarga asoslanib, o'zining axborot taqchilligini to'ldiradi degan fikrni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, chet tildagi kasbiy matnni o'qiyotganda, mutaxassis o'zining zarur va tegishli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

---

<sup>7</sup> Ломахина С.А. Самостоятельная работа студентов в процессе изучения текстов по специальности в неязыковом вузе // Изв. ПГПУ им. В.Г.Белинского. – 2016. – № 16 (20). – С. 141-144.

Bizning fikrimizcha, kasbga yo'naltirilgan o'qishning asosiy xususiyati shundaki, u ma'lum bir turdagi mehnat faoliyati bo'yicha mutaxassislar o'rtasidagi muloqotning maxsus shakli bo'lib, sohaviy (kasbiy) matnlar yordamida amalga oshiriladi va majburiy ma'lumot almashinuvini nazarda tutadi. Ma'lumki, o'qish mutaxassisga ushbu bilim sohasidagi mavjud tajribani egallash va o'z bilimini kengaytirishga imkoniyatlar yaratadi, bu esa professional o'sishga olib kelishi mumkin.

Xorijiy adabiyotlarni o'qib axborot olish ko'nikmalarini rivojlantirish har qanday kasbiy faoliyat sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashda zarurdir. Busiz mutaxassisning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish mumkin emas. Turli tipdagi o'quv yurtlaridagi chet til o'qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'qish turlarini tanlash maqsadga muvofiq.

Metodik adabiyotlarda chet tilidagi o'qish turlari quyidagi mezonlarga ko'ra farq qilinadi: ona tilining ishtirok etishiga qarab tarjimali va tarjimasiz o'qish; analiz va sintez elementlarining nisbatiga ko'ra analitik va sintetik o'qish; o'tkazilish joyiga qarab sinfda, auditoriyada, uyda o'qish; majburiylik darajasiga ko'ra, majburiy o'qish va ixtiyoriy o'qish; tayyorgarlik darajasiga ko'ra, qisman tayyorlangan, to'la tayyorlangan va tayyorgarliksiz o'qish turlari borligi aytib o'tiladi.

Nofilologik fakultet talabalarining o'qish ko'nikmalarini egallashga bo'lgan qiziqishlari kelajakdagi o'zlari tanlagan kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Shuning uchun matn tanlashda talabaning kasbiy yo'nalishini, kasbga nisbatan qiziqish uyg'otishini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Kasbga yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasini shakllantirishda o'qish mazmunini tanlash ham muhim masalalardan hisoblanadi. O'qish mazmunining chet tilda o'qishga o'rgatishdagi o'rni va rolini alohida ta'kidlash lozim, chunki matn mazmunidan olinayotgan axborot ta'limiy, kasbiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o'qish uchun olinayotgan har bir matn mazmuni ko'zlangan maqsad va kasbiy ehtiyojga javob beradigan bo'lishi kerak.

Nofilologik fakultetlar talabalarining ingliz tilidagi kasbiy matnlarni o'qib tushunish kompetensiyasini shakllantirish maqsadida tanlab olinishi kerak bo'lgan o'qish mazmunining komponentlarini lingvistik, psixologik, kasbga yo'naltirganlik nuqtayi nazaridan kelib chiqib aniqlash maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“O'qish kasbiy tayyorgarlik va kasbiy muloqotni shakllantirish vositasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish kompetensiyasi va turli kasb egalarini ingliz tilidagi matnlarni o'qib tushunishni o'rgatishga qo'yilgan talablar, nofilologik fakultetlarda chet til o'qitishda kompetentiv yondashuv va o'qituvchi kompetensiyasi va kasbiy matnlarni tanlash mezonlari va o'qib tushunishga o'rgatish tamoyillari tahlil qilingan.

Fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi o'qish kompetensiyasini shakllantirishda bosqichma-bosqich konsepsiyasiga amal qilgan holda, o'qitish kompetensiyasining funksiyalaridan kelib chiqib o'quv materialini tanlash, o'qitish shakli, metodi, usullari, vositalaridan maqsadli foydalanish, ingliz tilidagi matnlarni o'qib tushunishga o'rgatishga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunda ta'limda "kompetensiya" va "kompetentlik" atamaları keng qo'llanilmoqda. Aslida "kompetensiya" atamasi ta'limga kompetentiv yondashuv orqali kirib kelgan bo'lib, u ta'limni zamonaviylashtirish, tashkil qilish bilan bog'liq muammolarni kengroq o'rganish orqali chuqur bilimga ega bo'lish, ularning kelib chiqish sabablarini o'rganib, tahlil qilish, ijobiy yechimini topishdagi kreativlik va shu sohadagi boy tajribani anglatadi.

Kompetensiya – ma'lum bir sohada sifatli, sermahsul faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. Ushbu yuqorida keltirilgan tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, kompetensiya – bu oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u insonning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan kasbiy (professional) tayyorgarligi, bilimi va tajribasiga nisbatan qo'yilgan darajadir.

Kompetensiyaviy yondashuv inson faoliyatining har sohadagi kompetentligini shakllantirishni nazarda tutuvchi hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir.

Chet tilda kasbga yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasi fanlararo bilimlarni shakllantirish va nazorat qilish vositasi bo'lib ham hizmat qiladi, chunki:

matndagi leksik va sintaktik birliklar (majhul nisbat, sifatdoshli birikmalar) til materiali hisoblanib, ular o'qish orqali o'zlashtiriladi;

kasbga oid matnlar ma'lum mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lganligi uchun ham o'qish orqali mazmunni va mantiqiy bog'liqlikni nazorat qilishi mumkin;

kasbga yo'naltirilgan o'qish kompetensiyasini shakllantirishdagi uslubiy ko'rsatmalar til kompetensiyasini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, o'qish kompetensiyasi quyidagi harf-tovush munosabati; o'qib tushunish; so'z va so'z birikmalari; grammatik konstruksiyalar; to'g'ri talaffuz; o'qish texnikasi: (o'qish tezligi, ohang, pauza, urg'u) bilan bog'liq struktural fiziologik va matn mazmunini tushunish bilan bog'liq semantik komponentlardan iborat.

Nofilologik fakultetlar talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda o'qitish maqsadi va mazmunini tanlashga nisbatan ilmiy asosga ega bo'lgan strategik yondashuvni aniqlash zarurligi ko'p tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Buning muhimligi shundaki, o'qitish metodlari, usullari, shakli o'qitish maqsadidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kasbiy matnni o'qib tushunish kompetensiyasini shakllantirish ko'p jihatdan til o'rganuvchilarning kasbiy ehtiyoji, qiziqishlari va istak-xohishlariga ham bog'liqligi chet tilda o'qishga o'rgatishda ularning individual xususiyatlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Kasbiy matnlar bo'lajak mutaxassislarni kasbiy hayotga tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Chet tildagi kasbiy matnlarni o'qib tushunish, amaliyotda foydalanish kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy interfaol usullardan tarkib topgan o'qitish strategiyasini ishlab chiqish, kasbiy matnlardagi leksik-grammatik materialni o'zlashtirishda ham interfaol usullar va zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanish bu sohadagi yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi.

Nofilologik fakultet chet til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi quyidagi komponentlardan iborat: **Lingvistik; psixologik; pedagogik; metodik; kasbiologik.**

**Lingvistik komponent:** til va nutqiy material; idrok etishning lingvistik qiyinchiliklari; o'qish uchun matnlarga qo'yiladigan talablar.

**Psixologik komponent:** talabalarning motivlari va qiziqishlari; o'qish ko'nikma va malakalari; psixologik mexanizmlar; idrok etishning psixologik qiyinchiliklari; o'qishning boshqa nutq faoliyati turlari bilan bog'liqligi.

**Metodik komponent:** o'qishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish usul va metodlari; kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari; o'qib tushunishni osonlashtirish uchun turli texnik va notexnik vositalardan maqsadli foydalanish.

Chet til o'qituvchisining **kasbiologik komponenti** o'qish jarayonini kasbga yo'naltirilgan o'quv materialini asosida tashkil qilishni taqozo etadi va kasbiy leksika hamda kasbga oid mavzu va matnlarni o'z ichiga oladi.

Nofilologik fakultetlarda faoliyat ko'rsatayotgan chet til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi uning ta'lim jarayonidagi vazifalarini belgilab beruvchi asosiy manba bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik fakultetlarda faoliyat ko'rsatadigan chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining mazmunini amaliy darslarni tashkil qilishga oid kasbiy malakalar tashkil qiladi. Ular o'rganilayotgan chet tilga oid nazariy fanlarni o'tishga ixtisoslashgan emas. Ularning ta'lim jarayonidagi, ya'ni chet til o'qitish jarayonidagi asosiy maqsadi talabalarda chet tildagi matnlarni o'qib tushunish va chet tildagi manbalardan o'z kasbiy ehtiyojiga oid axborotni olishga o'rgatishdan iborat. Shu sababdan ham ular ta'lim jarayonida nutqiy faoliyat turlarining o'qish turiga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish ustuvor o'rin tutmog'i lozim. Bu esa o'qishni yozuv bilan integrallashuviga ham e'tibor qaratgan holda chet til ta'lim jarayonini tashkil qilishni taqozo etadi.

Gapirish va tinglab tushunishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish talabalarning kasbiga oid tanlab olingan o'quv materiallari ustida ishlash orqali amalga oshirilganda talabalarda chet tilni o'rganishga nisbatan motivatsiya hosil bo'lishi va til o'rganish samaradorligi oshishi mumkin. Bu esa o'z navbatida talabalarning kelgusidagi kasblariga oid bilimlarini o'sishiga va kasbiy mahoratlarini shakllanishiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Oliy ta'lim muassasalarining nofilologik fakultetlari talabalarida o'qish ko'nikmalarini egallashga bo'lgan kognitiv qiziqish kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq. Shuning uchun matn tanlashda uning sohaviy yo'nalishini, kasbiy qiziqishini uyg'otish va matnni tushuna olishini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Sohaviy matnlarni o'qib tushunishda va talabalarda o'qish kompetensiyasini shakllantirishda didaktik tamoyillardan maqsadli foydalanish ham talab etiladi.

Mutaxassislik bo'yicha matnlarni o'rgatish jarayoni aniqlik, kasbiy yo'nalish mezonlariga javob beradigan va o'rganish uchun ijobiy motivatsiyani yaratishga yordam beradigan maxsus tanlangan matnlar asosida maqsadli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, o'qish kompetensiyasini shakllantirishda o'qish uchun mo'ljallangan o'quv materiallarining mazmuni katta ahamiyatga ega. Aynan mazmun o'quvchilarda ijobiy motivatsiyani uyg'otish, chet tilida o'qishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, talabalarning bilim darajasi va nutqiy tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib ularga individual topshiriqlar berish imkoniyatini yaratadi.

Kasbga yo'naltirilgan matnlar tanlashning asosiy mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin: autentlik; kasbga yo'nalغانlik; matnlar mazmunining oliygoh o'quv rejasiga muvofiqligi; zaruriy kasbiy atamalarning mavjudligi; ma'lum bir auditoriya uchun tilning maqsadga muvofiqligi va matnning kasbga yo'naltirilgan mazmuni; tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishligi; kasbga oid ma'lumotning ko'pligi; matnning yorqin va qiziqarli syujetga egaligi va matn materialining xilma-xilligi.

Kasbga yo'naltirilgan chet tilda o'qishni (reading) tashkil qilish uchun tanlangan matnlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

tanlangan matn talabalarning ingliz tilidagi bilim darajalariga mos bo'lishi va undagi mazmun orqali o'zlari uchun yangi fikr, g'oyalari olish imkoniyati;

matn sodda gaplardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq (murakkab konstruksiyalardan tuzilgan qo'shma gaplar til o'rganuvchilarning matnni tushunishlarida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin);

matn faqat faktlardan iborat bo'lmasligi, ya'ni, chet tildagi matnni o'qib, o'zlari uchun yangi fikr, g'oyalarni olishga va tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi matn bo'lishi zarur;

ixtisoslikka oid atamalar matnni tushunishlari uchun muhim bo'lgan so'zlardan iborat bo'lishi, ya'ni shunday atamalarni tanlash kerakki, o'sha atamadan turli so'zlar yasash mumkin bo'lsin va u til o'rganuvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qilsin;

matn mazmuni kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan qiziqarli, har bir kasbga xos zamonaviy texnologiyalarni aks ettiruvchi va ularga oid yangi terminlarni o'z ichiga olganligi sababli bunday matnlar ustivorlikka ega bo'lishi kerak.

Umumlashtirib aytganda, chet tildagi kasbiy matnga va uni o'qib tushunishga qo'yiladigan talablarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Kasbiy matnlar kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlariga mos tanlab olinishi va didaktik jihatdan osondan murakkabga tamoyili talabiga ko'ra ma'lum ketma-ketlikda o'rganilishi lozim.

2. Boshlang'ich bosqichda o'qib o'rganishga qaratilgan matnlar mazmun va leksiko-grammatik jihatdan tili o'rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-madaniyatiga xos bo'lgan linguakulturologik axborotni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq.

3. Kasbiy matnlarni o'qish jarayonida kerakli axborot berilgan joylarni yozib olish ham uni tushunib olish va keyinroq amaliyotda qo'llashga yaxshi zamin yaratadi. Bu o'qishni yozuv bilan integratsiyalashuviga xos ko'nikmalarni shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

